

Yevropada kompozit materiallar bozori 2035-yilga borib 47,5 mlrd dollarga yetadi

// 13.08.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/yevropada-kompozit-materiallar-bozori-2035-yilga-borib-47-5->



2025-yilda Yevropada kompozit materiallar bozori hajmi 28,1 mlrd dollarni tashkil etdi. Precedence Research (PR) hisobotiga ko'ra, 2026–2035-yillar davomida bozor hajmi 29,6 mlrd dollardan 47,5 mlrd dollargacha o'sib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5,38 foizni tashkil etadi.

Armirllovchi element turi bo'yicha shisha tolali kompozitlar ustunlik qiladi — ularning bozordagi ulushi 64,8 foizni tashkil etadi. Undan keyin 22,7 foiz ulush bilan uglerod tolali kompozitlar turadi.

Yakuniy foydalanish sohalari kesimida avtomobil sanoati 26,1 foiz ulush bilan yetakchilik qiladi. Keyingi o'rinlarda qurilish sohasi — 16,6 foiz, shamol energetikasi — 15,4 foiz, shuningdek, aerokosmik va

mudofaa sanoati — 12,7 foiz ulush bilan qayd etilgan.

Yevropa Ittifoqi kompozit materiallar bozoridagi asosiy kompaniyalar qatoriga PPG Industries, Toray Industries, Owens Corning, Hexcel Corporation va DuPont kiradi.